



## RIZOUDDIN IBN FAXRIDDIN DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA TA'LIM TIZIMINING TUTGAN O'RNI

Alijonova Gulnozaxon

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,  
islom tarixi va manbashunosligi IRCICA kafedrası  
tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5716547>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05- Noyabr 2021

Ma'qullandi: 10- Noyabr 2021

Chop etildi: 15- Noyabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

*Rizouddin ibn Faxriddin,  
Shilcheli, Idil-Bulg'or, Ufa,  
madrasa, maktab, jadid,  
qozi, muftiy*

### ANNOTATSIYA

*Rizouddin ibn Faxriddin ta'lim olgan yillari va mustaqil  
izlanishlari uning olim sifatida shakllanishida muhim rol o'ynadi.  
Maqolada Rizouddin ibn Faxriddin davridagi ta'lim tizimi va  
olimning ilm olishga munosabati tasvirlangan.*

**Kirish.** Rizouddin ibn Faxriddin 1858 yilda Idil-Bulg'or mintaqasining Kichuchat qishlog'ida dunyoga kelgan. Olim tafakkurining shakllanishida ta'lim tizimi tutgan o'rni ahamiyatlidir. Rizouddin ibn Faxriddin ta'lim olishni bolaligidayoq boshlagan edi. Olimning onasi Mevhuba honim Kichuchat qishlog'iga kelin bo'lib kelganidan keyin (1839) yosh o'g'il-qizlarni o'qita boshlaydi [1:229]. Yosh Rizouddin ham boshqa o'quvchi bolalar bilan onasidan dars ola boshladi. Bu paytda u 5-6 yoshlarda edi. Onasi unga dars o'tishda o'ta talabchan bo'lib, hech qachon darslarni bo'shashtirib yubormasdi. Keyinchalik olim onasidan ko'rgan bu ulkan marhamatni umr bo'yi unutmadi. Kichik yoshdan o'qib o'rgangan kitoblari uni kelgusida ulkan olim bo'lib yetishishida katta omil bo'lib, olim

bularning barchasiga onasini eng katta sabab deb e'tirof etdi.

**Asosiy qism.** Rizouddin ibn Faxriddin bolaligidanoq onasiga, otasiga va qishlog'idagi boshqa kishilardan to'xtovsiz savollar so'rar edi. Kichuchat qishlog'ida qayin daraxtlari ko'p o'sganligi uchun yosh Rizouddin bu daraxtlar nega bunday o'sadi, ularning shakli nima uchun bunday deya yoshi kattalarni so'roqqa tutar edi. Yoshi kattalar esa unga javob berishardi. Biroq biroz bo'yi o'sib voyaga yetgach Rizouddin kattalar har doim ham rost gapiravermasligini tushunadi. Keyinchalik olim o'z asarlari orqali kattalarning bolalar savollariga no'to'g'ri yoki e'tiborsizlik bilan javob berishlari mutlaqo noto'g'ri ekanligini urg'ulab yozdi. U kattalarning bolalar savollariga diqqat bilan qarashlari lozimligini ta'kidlab, ular anglaydigan



shaklda javob berish kerakligini uqtirdi. Uning fikricha yoshlikda noto'g'ri o'rganilgan bilim to inson qarigunicha shunday holda qoladi. Huddi noto'g'ri o'rgatilgan namoz duolari kabi. Rizouddin ibn Fahriddin sakkiz yoshga to'lgach madrasaga borishni istadi biroq uning oilasi bu xususda hali bir qarorga kelmagan edi. Onasi jonidan ortiq ko'rgan bolasidan ayrilishini bilsada madrasaga yuborishga rozi edi ammo otasi bunga ko'nmaydi. Biroz vaqt o'tib yosh Rizouddinning pochchasi Ohund G. Karimi o'zi habar olib turishlarini aytib bo'lajak olimni Chistoy (Chistapol) shaxridagi madrasaga berishlarini otasidan iltimos qiladi. Shunday qilib Rizouddin 1867 yilda madrasada o'qishni boshlaydi. Chistoy madrasida bir muncha fursat ta'lim olganidan keyin 1868 yilda qishlog'iga qaytib ta'tilni shu yerda o'tkazadi. Ta'tildan keyin u yana Chistoyga qaytishni istasada bu amalga oshmaydi. Chunki pochchasi G. Karimi Mingliboy qishlog'iga imom etib tayinlangandi. Shu sabab bo'lib, qishlog'idan ancha uzoq bo'lgan Chistoy madrasasida undan habar olib turadigan boshqa kimsa bo'lmagani va o'zi ham hali ancha yosh bo'lgani uchun 1868 yilni shu qishloqda o'tkazishga qaror qiladi. Agar Rizouddin madrasadagi o'qishini davom ettirib yakuniga yetkazsaydi, keyinchalik uning ko'nglida rus-tuzem maktablarida o'qish istagi tug'ilgan bo'lar edi. Shundan bo'lsa kerak Rizouddin ibn Faxriddin butun umr rus maktabida o'qimagani va rus tilini o'rganmagani sabablimi, keyinchalik barcha farzandlarini rus-tuzem maktablarida tahsil oldirdi. 1914 yilda Qozon mintaqasida 30 ta atrofida madrasa bo'lib ularda bo'lajak 1000 ga yaqin imom-mudarrislar tahsil olardi. Agarda biror hududga imom yoki mudarris kerak bo'lib qoladigan bo'lsa ular o'rtasida qattiq ilmiy raqobat yuz

berardi[2:244]. 1890-yilga qadar Idil-Ural mintaqasida o'qish bu - diniy maktab va madrasaga oid edi holos. Madrasada o'qishga kitoblar ham yetarli emas edi. Soni 15-20 million bo'lgan Rossiya musulmonlari orasida yoza oladigan kishilar sanoqli edi. Odamlarning yuzdan to'qson besh foizi rus tilini bilmagani sababli Rossiyada bosilgan kitoblardan iste'foda etishning imkoni yo'q edi.

Qiz bolalarning ta'lim olishlariga Idil-Ural mintaqasida Qrim, Kafkaz va Turkistonga qaraganda bir muncha ahamiyat berilsada birozgina diniy ilm o'qitishdan uyog'iga o'tilmasdi. Ular asosan og'zaki o'qitilgan va ularni yozishga bo'lgan rag'batlari qondirilmagan. Chunki qizlarning yozishni o'rganishlari yaqinlari tomonidan yigitlarga (sevgilisiga) xat yozishlariga olib keladi deb hisoblanib, yozishni o'rgatishmasdi. Qizlar Islom dunyosining boshqa biror joyida uchramaydigan tarzda imom domlaning hotinidan ta'lim olardi. Qizlar bu yerda "Muhammadiya", "Ahmadiya", "Bo'zyigit", "Sayfulmulk" kabi hikoyalarni tinglashardi[3:30].

Ismoilbek Gaspirinskiy o'z paytida Rossiya musulmonlarining qiz bolalarga ko'r-ko'rona tarzda bunday ta'lim berishni tanqid qilib quyidagilarni yozgan edi: "Musulmon dunyosida shunday ajoyib hollar bordirki bunga sabab shariatda haddan tashqari g'uluvga ketish va urf-odatning tasiridan bo'lsa kerak. Bu odatlarning bittasi qizlarga ta'lim-tarbiya berishdagi e'tiborsizlikdir. O'g'il bolalarni o'qitish uchun yuz himmat etilsada "qizlarning ilm olishlariga hojat yo'q" deya ba'zilar johillik bilan fikrlab himmat qilmayptilar. Qozon, Volga, Ural mintaqalaridagi musulmonlar qizlariga o'qishni va oz bo'lsada yozishni ham



o'rgatadilar. Diniy qoidalardan ham biroz bo'lsada ma'lumot beradilar. Lekin Qrim musulmonlari qizlarini bu darajada o'qitishni juda ko'p hisoblaydi. Qrim qizlari "Muhammadi diniyadan" ozgina bo'lsada o'qiydilar faqat "Kalom"ning nima ekanini bilmaydilar. Kavkaz va Turkiston mintaqalariga qaralsa qrimlik qizlar shukrlar qiladi. Chunki Kafkaz va Turkistonda qizlarga "Kalom" tugul kitob ham ko'rsatilmaydi. Ularning ilm va maoriflari yodlab olingan bazi bir duolardangina iboratdir. Maktab va madrasalar bu davrda masjidlar tarkibida faoliyat ko'rsatgan. Madrasadagi dars o'qitiladigan joylar tor, kichik, dim, eshiksiz va sharoitlari yomon xonalardan iborat edi. Garchi mintaqada bazi bir kattaroq madrasalar bor bo'lsada lekin ularning ham ahvoli umuman olganda boshqa kichik madrasalar bilan soltishtirganda deyarli bir hil edi. Maktablar oz sonli qishloqlardagina mavjud bo'lib ularda biror bir rasmiy ruhsatga ega bo'lgan mullo va uning yordamchisi bo'lgan halfalar nazoratida o'qitilinar edi. Bu kabi maktablarda halfalik umuman olganda imomlik va muazzinlik xizmatlarini bajarishga iqtidori yo'q kishilardan iborat edi. Bu xil madrasalarda yotib o'qigan o'quvchilarning hollari unchalik yaxshi emas edi. O'quvchilar yeyish-ichish va ovqat masalasida qiyin ahvolda edilar. O'z navbatida ovqat tayyorlash va choy damlash kabi ishlar yuqori sinf o'quvchilari uchun pastki sinf bolalari tomonidan tayyorlanardi. Kichik sinflar subh namozidan boshlab o'choqqa o't yoqib suv qaynatardilar. 30-40 darajada havoning sovuqligi nazarda tutilsa bu yumushning nechog'lik qiyin ekanligi oydilashadi. Talabalarning iqtisodiy ahvollari ham ularning ovqatlanishida aks etgandi. Bolalar go'sht, sut-qaymoq kabi

narsalar bilan ovqatlanmasdilar. Yotoqxonolari va o'tirgan darsxonolari ham quruq yerdan iborat havosiz va eshiksiz bo'lib sovuq bir xonalar edi. O'quvchilarning bir qismi bunday ahvoldagi sharoitlar sabab turli hil kasalliklarga duchor bo'lishgan edi. O'quvchilarning uzluksiz tarzda bunday kasalliklarga uchrayverishi madrasa ahli orasida jinlar haqidagi turli hil afsonalarning urchishiga olib keladi [4:23-25].

O'quvchilar yig'im-terim oylari orasida madrasaga to'planishar va fevral oyining o'rtalariga qadar ortga qaytishardi. Mintaqada qish oylarida uzoq hududlardan kelib o'qishga qiynalishgani uchun bu paytda musofirlik sabab ba'zi bir bolalar tahsilni davom ettira olmasdilar. Boshqalari esa darsga bir kun kelsa ikkinchi kun kelmasdi. Idil-Ural madrasalarida o'rta ta'lim yetti (7) yilni tashkil etardi. Madrasalarning dasturlari Buxorodan olingan bo'lib ularning faoliyati ham Buxorodagidek edi. Dars kitoblari ham hamon Buxorodagi dars kitoblaridek edi. Vaqtlarini befoyda munozaralar bilan o'tkazsalarida, tafsir va hadisdan hech qanday bilimga ega emasdilar. Ular butun umrlarini eski yunon falsafasi va mantiq bilan o'tkazib shungagina ulkan ahamiyat berardilar. Mayda masalalarga haddan tashqari mahkam yopishib olgan edilar. Ta'lim olish usullarining samarasizligi madrasalardagi ta'lim tizimini yanada yomonroq ahvolga olib kelardi. Masalan bolalar maktabga kelib ilk o'rganadigan so'zi "Fotiha" surasining "Al hamdu" so'zi edi. Biroq "Fotiha"ni o'qish uchun bu so'zdagi harflarni tajvid qoidalariga asosan o'qish lozim bo'lsada, bolalarga tavjid asosida darslar berilmas edi. Bolalar mana shu tarzda tushunsa, tushunmasa ta'lim olishda davom etardi. Bolalar qanchalik



zakiy va tirishib o'qishsa ham uzoq fursatda ozgina bilimni o'zlashtira olardilar holos. Tanbal va dangasa bo'lgan o'quvchilar esa uch-to'rt yilda ham hech narsani o'rganish olmasdi[5:25]. Yozuv ilmini o'rganish haqida esa gap bo'lishi mumkin emasdi. Yozishni istagan o'quvchilar o'z oilasidagi bilganlardan yoki bir birlaridan ko'rib o'rganishardi.

Madrasalarda birinchi yil darslarida dars olishni boshlagan bolalar uylaridan bir tahtacha keltirardilar va unga barcha arab harflari yozilardi. Harflar tahtachaga yozilganidan keyin uni o'qish boshlanardi. Arab harflari o'rganib bo'linganidan keyin tahtachaga "Fotiha" surasi yozilar va uni hijjalab o'qish boshlanardi. Fotihadan keyin "zamma", "fatha", "kasra" o'rgatilardi. Bundan keyin esa "Sirotul imon" nomli kitobdan jumlar o'qitilardi. Bu darslarni ba'zi bolalar ikki-uch yil o'qir edilar biroq bu darslar aslida bir yilda tugatsa bo'ladigan darslar edi. O'quvchilarning ko'pchiligi shular bilan o'z ta'limlarini tamomlashardi.

Ikkinchi yilgi darslarda "Haftiyak" o'qitilardi.

Unchinchi yil darslarda esa yana "Haftiyak" va "Bedavam" kitoblari o'qitilardi.

To'rtinchi yilda darslarida, "Fazoilush shuhur" (Mashxurlarning fazilatlarini), "Taqiyyuna ajab", "Olma kitobi" va "Yusuf va Zulayho" asarlari o'qitilgan.

Beshinchi yilgi darslarda esa, "Sabot ul-ojizin" (Ojizlar saboti), "Rohati dil" (Ko'ngil rohati), "Mo'jizatnoma", "Nasihatul solihin" (Solihlar nasihati), "Haftiyak tafsiri", "Ustuvoni" (Imon asoslari haqida ma'lumot beruvchi kitob) "Bog'irqon", "Sayful muluk" kabi kitoblar o'qitilgan.

Oltinchi yilgi darslarda esa arab va fors tillari o'qitilardi va "Qirq hadis", "Shurutus solat" (namozning shartlari), "Amallar" (e'tiqodga oid kitob), "Ta'allamus solat" (namozni o'rganishga doir kitob), "Yak hikoya" (bir hikoya-fors tilida), "Tuhfatul muluk", "Kofiya" va shularga o'xshash kitoblar o'qitilgan.

Yettinchi yil darslarida esa "Majmaul latif (latifalar majmuasi), "Kitabul lubob", "Daqiqul ahbor" (habarlarning saralari), "Hamdu bi hamd" (cheksi hamd), "Halabi" (Islom huquqiga oid kitob), "Murodul orifin" (Oriflar murodi), "Hadiyatul suluk", "Nasabul ahbor" kabi kitoblar o'qitilgan.

O'quvchilar shu tarzda o'qishib tahsilni tamomlashardi. Yetti yildan keyin yana tahsilni davom ettirishni istagan o'quvchilar ko'proq ilm olish maqsadida Buxoroga borib tahsilni davom ettirishgan. Yetti yillik ta'limdan keyin tahsil insonning to 40 yoshigacha davom etardi. Shuncha yil o'qisa ham ba'zilar yozishni o'rganish olmasdilar, o'rganganlari ham madrasadagi ta'limning sharofatidan emas balki o'quvchilarning bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlaridan va shaxsiy g'ayrat ko'rsatishlaridan o'rganish olardilar.

**Xulosa.** Ensiklopedik bilim egasi, ruhiy-ijtimoiy hayotning turli tarmoqlari haqida qalam tebratgan Rizouddin ibn Faxriddin XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi butun musulmon turk xalqlarining adabiyoti, ijtimoiy fikr taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Uning nomi faqatgina Qozon, Orenburg, Turkiston shahar va mintaqalarida taniqli bo'lmay balki uzoq xorijiy mamlakatlarga ham yoyilgan edi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rizouddin ibn Faxriddin. Asar. 2 jild. Orenburg.: 1905.
2. Rizaeddin Fahreddin. Kitabul e'tibor. Kazan.: 1887.
3. Rizaeddin Faxriddin. Kazan.: 1999.
4. Ayaz Ishaki. Rusiya musulmanlari. Istanbul.: Sirati mustakim. 1904.